XALQ DEPUTATLARI XORAZM VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 20-may VII-9-74-12-0-K/25 Xorazm viloyati

Xorazm viloyatida ichimlik suvi ta’minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo‘yicha xizmatlar uchun tariflarni belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 22-iyuldagi “Ichimlik suv ta’minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish to‘g‘risida”gi O‘RQ-784-sonli qonunining 45-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 6, 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari viloyat Kengashi

Qaror qiladi:

1. Xorazm viloyati “Xorazm suv ta’minoti” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori A.Qadirovning axboroti hamda viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining tegishli xulosasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xorazm viloyati “Xorazm suv ta’minoti” mas’uliyati cheklangan jamiyati tomonidan taklif etilayotgan Xorazm viloyatida ichimlik suvi ta’minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo‘yicha xizmatlar uchun tariflar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining 2024-yil 30-maydagi “Xorazm viloyatida ichimlik suvi ta’minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo‘yicha xizmatlar uchun tariflarni belgilash to‘g‘risida”gi VI-81-69-12-0-K/24-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

4. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi Xorazm viloyati boshqarmasi boshlig‘i D.Bekchanova, Xorazm viloyati teleradiokompaniyasi direktori O‘.Matqurbanov hamda “Xorazm haqiqati” gazetasi bosh muharriri S.Raximberganovalarga ushbu qarorni rasman e’lon qilish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan o‘n besh kun o‘tgach kuchga kiradi.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi K.Igambergenov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



RADJABOV ALTIBAY BEGJANOVICH

Xalq deputatlari Xorazm viloyati
Kengashining
2025-yil 20-maydagi
VII-9-74-12-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Xorazm viloyatida ichimlik suvi ta’minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo‘yicha xizmatlar uchun tariflar

Xizmat turi	**O‘lchov birligi**	**Narx** (QQSsiz) (so‘m)
Ichimlik suvi narxi		
Aholi uchun	1m^3	4 500
Budjet tashkilotlari uchun	1m^3	10 400
Ulgurji iste’molchilar uchun	1m^3	10 400
Oqova suvi narxi		
Aholi uchun	1m^3	1 850
Budjet tashkilotlari uchun	1m^3	3 800
Ulgurji iste’molchilar uchun	1m^3	3 800